

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



“AHOLI PUNKLARINI REJALASHTIRISH”
FAN DASTURI

Bilim sohasi: 700000 – Muhandislik, ishlov berish va
qurilish sohalari

Ta'lim sohasi: 730000 – Arxitektura va qurilish

Ta'lim yo'nalishi: 60730100 – Arxitektura (turlari bo'yicha)

Urganch-2025

Mazkur o'quv fan dasturi Urganch davlat universiteti kengashining 2025-yil 23.06 dagi № 11 - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.


O'quv ishlari bo'yicha prorektor:  S.U. Xodjaniyazov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:  G'.R. Matlatipov

Mazkur o'quv dastur "Texnika" fakulteti Kengashining 2025-yil 26.06 dagi № 12 -sonli yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan

Texnika fakulteti dekani:  M.Q. Qurbonov

Mazkur o'quv dastur "Arxitektura" kafedrasining 2025-yil 23.06 dagi № 22 - sonli yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan

"Arxitektura" kafedrası mudiri:  R.Q. Palvanov

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
APRL254	2025-2026	3	5	
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Tanlov fan	O'zbek/Rus		4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Aholi punktlarini rejalashtirish	30 ma'ruza 30 amaliy	90	150
2.	I. Fanning mazmuni, maqsadi va vazifasi			
	<p>Fanni o'qitishdan maqsad – kelajakda talabalarda loyiha tashkilotlarida ishlashda zamonaviy sharhlarni loyihalash jarayonida eng ilg'or tajribalarni qo'llagan holda, hamda ilmiy jihatdan asoslangan texnologiyalarni amaliyotda joriy qilish va bu boradagi bilimlarini kurs loyiha, diplom ishlarida qo'llash, shahar va qishloq hududlarida qurilishi mumkin bo'lgan aholi punktlarini rejalashtirishdagi bilimlarga ega bo'lishi, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarga aholi punktlarini rejalashtirishda loyihalash bosqichlaridan habardor qilish, ularga tegishli bo'lgan texnik vositalaridan va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo'llarini o'rgatish, bu kabi rejalashtirish tarmog'ini yanada rivojlantirish, turar-joylarga nisbatan eng qulay bo'lgan joylarga joylashtirish, ularni me'moriy-rejaviy jihatdan mukammal bo'lgan tashqi qiyofalarini yaratish, shahar va qishloq hududida yaxlit bir muhit barpo qilishdir.</p>			
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)				
Fan bo'yicha nazariy mashg'ulotlar nazarda tutilmagan.				
1-mavzu. Qishloq aholi punktlarining bosh tarhi va markaziy maydonlari shakllanishdagi tarixiy asoslari.				
2-mavzu. Qishloq aholi punktlarini loyixaviy tashkillashtirish haqida tushuncha.				
3-mavzu. Qishloq aholi punktlarini loyixaviy tashkillashtirish haqida tushuncha.				
4-mavzu. Hududiy me'moriy-rejaviy tashkillashtirish loyahasida bosh reja loyiha sxemasini ishlash va I navbatdagi qurilish haqida ma'lumot.				
5-mavzu. Aholi soni va uning 20 yillik o'sishiga asosan jamoa binolarini tanlash va hisoblash. Qishloq aholi punktlarini turar joy xududini tashkillashtirish				
6-mavzu. Qishloq aholi punktlarining "bosh reja" sxemasini ishlash metodologiyasi. Apot ga asosan bog'lash.				

7-mavzu. Ma'muriy va jamoatchilik ob'ektlarini tashkillashtirish

- Aholi soni 100-500 kishigacha
- Aholi soni 500-1500 kishigacha
- Aholi soni 1500-2000 kishigacha
- Aholi soni 2000-3000 kishigacha
- Aholi soni 5000 dan yuqorisi

8-mavzu. Ijtimoiy infratuzilma, maktab maktabgacha ta'lim muasasalari tarmoqlarini tashkil etish madaniy-ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirish.

9 mavzu. Madaniy meros obidalari muhofazasi holatini tekshirish.

10-mavzu. Muhandislik va transport infratuzilma

11-mavzu. Ekologik va hududni muhandislik tizimi

12-mavzu. . G'arb ta'sirida bo'lgan zamonaviy Xitoy arxitekturasini.

13-mavzu. Jamoa binolarining 1-2 qavatli turar joy binolarini jamoa binolariga qo'shilishi va qishloqlarning markaziy maydonlarini tashkil qilish.

1. Kichik qishloq aholi punktlari 100-1000 gacha kishi
2. O'rtacha 1000-3000 gacha kishi
3. Katta 3000-5000 gacha kishi
4. Yirik 5000 ta dan ko'p kishi.

14-mavzu Yangi ish joylari tashkil qilish ob'ektlarini jamoa markazlariga joylashuvi

III. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlari)

"Aholi punktlarini loyihalash" kursining vazifasi, hududlarni memoriy-rejaviy tashkillashtirish loyiha fanini o'qitishidan asosiy maqsad talabalarni qishloqni loyihalashning asoslari va yakka tartibida amalga oshirayotgan turar joy, qurilishining rivojlanishi, qishloq infratuzilmasini yaxshilash, va bundan barcha qishloq aholi punktlarining sxematik bosh rejalari ishlab chiqiladi, er resurslari, turar joy fondi, ijtimoiy va muhandislik infratuzilmalardan oqilona tarzda foydalanish masalalari hal qilinadi.

Ushbu kursning maqsadi:

- Talabalarni arxitekturadagi "Aholi punktlarini loyihalash" tushunchasi, uning tarixi, zamonaviy tendensiyalari va amaliy jihatlari bilan tanishtirish.

- Aholi punktlarini loyihalarini tanqidiy tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish.

- Talabalarni aholi punktlarini loyihalashlari to'g'risidagi bilimlarni loyihalashning amaliy vazifalarida qo'llashga o'rgatish. Ushbu kursni o'rganish vazifalari;

Kurs talabalarni "Aholi punktlarini loyihalash" asoslari bilan izchil tanishtirishni o'z ichiga oladi; ma'ruza shaklida asosiy tushunchalar, tamoyillar, normalar, hisob-kitoblar.

III.1. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar memoriy-rejaviy loyihalash bosqichlarini, badiiy va kompozitsion tuzilmalarini, funksional yechimlarini, funktsiya va shakl omillarini o'rganadilar. Aholi punktlarini rejalashtirishda kirisha turib, eng avvalo, ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonni o'rganish, so'ngra texnologik jarayonni qoniqtiradigan hamda funksional yechimlari javob beradigan talablar aniqlanib loyihalashi lozim. ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish ishlab chiqarish tuzilishini belgilaydi va u korxonada tarx yechimiga mos bo'ladi, boshqacha qilib aytganda, tsexlar, xizmat ko'rsatuvchi ob'ektlar va xo'jaliklarni hududiy joylashtirish muammolari yechiladi. Aholi punktlari konstruktiv ravishda mujassamlashtirilishida kerak bo'lgan muammolari hal qilinadi. Aholi punktlarini rejalashtirishda masalalari ko'p qirrali bo'lib, loyihalash jarayonida va qurishda uning kompozitsiyasiga, tarxiy tuzilishida funksional va estetik yechimiga, ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar, ya'ni aholi punktlarining havo muhiti, aeratsiya, shovqindan himoya qilish, ishlab chiqarishning texnologik jarayoni va muhiti kabi muhim masalalarni albatta hisobga olmoq lozim.

Loyihalash ob'ekti sifatida loyihalash vazifalari, holat tarx, bosh tarx, QMQ, SHNK va loyiha texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari ochib berish hisoblanadi. Arxitekturaviy-rejalashtirish qismi – bosh tarx shaklida, maket, yoki kompyuter grafikasida bajarilishi mumkin. Loyihani grafik rasmiylashtirish A1 formatda bajarilishi tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

3-semestr

- 1-mavzu.** Kirish. Aholi punktlarini loyihalashtirishning asosiy tushunchalari.
- 2-mavzu.** Aholi punktlari loyihasi ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan hujjatlar.
- 3-mavzu.** Maydon tanlash. Tanlangan hududni tadqiq qilish.
- 4-mavzu.** Tanlangan hududni o'rganish. "Topografik asos"ni A3 formatdagi qog'ozga joylashtirish.
- 5-mavzu.** Aholi soni va uning 20 yillik o'sishini hisobga olib, aholi punktlarini funksional hududlarga bo'lish.
- 6-mavzu.** Aholi punktlarini funksional zonalarga ajratish va jamoat joylarini belgilash.
- 7-mavzu.** Aholi punktlari sxematik loyihasi bosh rejasini (eskizini) ishlab chiqish bosqichlari.
- 8-mavzu.** Klavuzura ustida ishlash.
- 9 mavzu.** Turar-joy fondini hisoblash.
- 10-mavzu.** Ma'muriy hududni joylashtirish, Sanoat zonasini joylashtirish, Transport sxemasini ishlab chiqish.
- 11-mavzu.** Aholi punktlarini rejalashtirish chog'ida landshaft yechimlari ustida ishlash.
- 12-mavzu.** Avtomobil to'xtash joylari va yo'l bo'yidagi landshaftlarni joylashtirish. Ko'chalar kesimlarini ishlab chiqish.

13-mavzu. Hudud balansi va eksplikatsiyalarni joylashtirish.

14-mavzu. Loyihaning grafik yakunlanishi.

15-mavzu. Loyihani topshirish va muhokama qilish.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, talaba o'qituvchi rahbarligida yangi bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ijodiy faoliyatni amalga oshirish maqsadida maslahatlar oladi. Ushbu shakllarga quyidagilar tegishlidir:

Darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish; tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish, ilmiy-tadqiqot institutlarida, kutubxonalarda, davlat arxivlarida tadqiqotlar olib borish; maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash.

Mustaqil ish bajariladigan mavzular bo'yicha savolnomalar tuzish, savollarga foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalangan holda yozma tarzda javob berish, qonun, qaror, me'yoriy hujjatlardan foydalanish, har bir mavzu bo'yicha muammoli masalalarni hal qilish yo'llarini bayon qilish, tavsiyalar berish va boshqalar.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan prezentatsiya material tayyorlash va klauzurasini A3 formatda chizilib topshiriladi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning namunaviy mavzulari:

1. Zamonaviy aholi punktlari jamoat markazlari tarkibiy va funksional o'zgarishida urbanizatsiyaning ta'siri.
2. Aholi punktlari jamoat markazlari shaharsozligining zamonaviy holati.
3. Shaharlarni ta'mirlash nazariyasi va amaliyotida asosiy yo'nalishlar.
4. Aholi punktlari jamoat markazlari tashqi hududlarini funksional zonalashtirish.
5. Ta'mirlanayotgan shaharlardagi mavjud qurilishlarni xarakteristikasi
6. Aholi punktlari jamoat markazlarini ta'mirlash sharoitida shahar ko'kalamzor hududlarini qayta tashkil etish.
7. Transport va muxandislik - texnika tizimlarining shahar tashkil etuvchi ahamiyati va ularni mukammallashtirish.
8. O'zbekiston tarixiy shaharlarining shaharsozlik xususiyatlari.
9. Dunyo shaharlarini ta'mirlashda ijodiy izlanishlar, loyihalardan misollar.
10. Maxsus qurilmalar bo'lgan qo'riqlanadigan hududlar, arxitektura yodgorliklarini qo'riqlashga qo'yiladigan talablar.
11. Aholi punktlari jamoat markazlari maydonlarini rekonstruksiyasi.
12. O'zbekiston shaharsozligining zamonaviy holati.
13. Zamonaviy shaharlarning tarkibiy va funksional o'zgarishida urbanizatsiyaning ta'siri.

14. Shaharlarni ta'mirlash nazariyasi va amaliyotida asosiy yo'nalishlar.

15. Shahar va qishloqlar tashqi hududlarini funksional zonalashtirish.

16. Ta'mirlanayotgan aholi punktlari jamoat markazlari mavjud qurilishlarini xarakteristikasi.

17. Shaharni ta'mirlash sharoitida shahar ko'kalamzor hududlarini qayta tashkil etish.

18. Transport va muxandislik-texnik tizimlarining shahar tashkil etuvchi ahamiyati va ularni mukammallashtirish.

19. O'zbekiston Respublikasi qishloq aholi punktlarini zamonaviy xolati.

20. Qishloq aholi punktlarini rejalashtirish haqida tushuncha.

21. Mavzu asosida qilinayotgan loyiha ishini infratuzilmasi zamonaviy xolati.

22. Bolalar bog'chalari-yasllaridagi o'rinlar soni muayyan posyolka aholisining demografik tuzilishi.

23. Mavzu asosida qilinayotgan loyihalar bilan tanishish, zamonaviy xolati.

24. Davlatlar aro transportlar qishloq aholi punktlaridagi roli.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- O'zbekiston shaharsozligini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini bilishi va ular haqida tasavurga ega bo'lishi;
- Renovatsiyada zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, masalan, 3D-modellashtirish, virtual haqiqat, aqlli boshqarish tizimlari.
- Shaharsozlikda qulay muhit yaratish, bino va jamoat joylariga kirishni yaxshilash.
- Binolarning tarixiy qiymatini saqlab qolish, ularni zamonaviy funksiyalar bilan boyitish.
- Qulay, xavfsiz va energiya samarador binolar va shahar bo'shliqlari yaratish.
- Shaharlardagi hayot sifatini yaxshilash va kelajak avlodlar uchun barqaror kelajak yaratish.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. X.K.Tursunov, M.U.Umarov, Sh.D.Achilov. Qishloq aholi punktlarini rejalashtirish. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2015. 2. Xolmirzaev K.M. "Transport va injenerlik obodonlashtirish" T. 2014 yil. 3. Avdotin L., Azizyan I.A., Bernshteyn D. i dr. "Arxitektura i gradostroitelstvo. Ensiklopediya" (2001) 4. Xosieva S.A. "Arxitektura gorodskoy sredy" Moskva Stroyizdat 2001 yil 5. Sodiqova M.A. Qishloq posyolkasi. O'quv qo'llanma T. 2007 TAQL. <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Konsepsiya razvitsiya gradostroitelstva Uzbekistana V usloviyax formirovaniya new sotsialno-ekonomicheskix otnosheniy. T,TASU 2008 yil. 2. Mirzaev M.K. Tumanni rejalashtirish asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2000 3. Isamuxamdova D.U., Adilova L.A. «Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi». Darslik. 1-qism., Toshkent, 2009. 4. Isamuxamdova D.U., Adilova L.A. «Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi». Darslik. 2-qism., Toshkent, 2009. 5. «Qishloq joylarida namunaviy loyihalar asosida xususiy uy joy qurilishni kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 17 iyuldagi PK-1354 sonli qarori. 6. SHNQ 2.07.01-03* Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishni rejalashtirish. T. O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi. 2009. 7. SHNQ 2.07.04-06* Qishloq xo'jaligi korxonalarini hududlarini rejalashtirish va tashkil qilish. T. O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi. 2006 <p>Axborot manbalari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. https://www.tsinghua.edu.cn/en/pdf/ut2023.pdf 2. http://www.glazychev.ru/books/mir_architektury/glava8glava08-01.htm 3. http://www.natlib.uz/rus/calendar2006.pdf - Национальная библиотека Узбекистана. 4. http://www.archunion.com.ua/clovarik.shtm1 - Архитектурная энциклопедия.
7.	<p>*Izoh: Mazkur dasturdagi 7, 12 mavzu TOP-300 OTMlar QS reytingida turuvchi Niderlandiya davlatining TU Delft politexnika universiteti dasturi tahlili asosida yangidan kiritildi. https://www.tsinghua.edu.cn/en/pdf/ut2023.pdf</p>

8.	<p>Fan dasturi Urganch davlat universiteti Kengashning 2025 yil "___" ___ dagi ___-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p>
9.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>Arx. kaf. dotsenti <u>SH.I.Abdullayeva</u></p> <p>Arx kaf. o'qituvchisi <u>I.M.Bekturdiyev</u></p> <p>Arx kaf. o'qituvchisi _____ S.A.Yusufov</p>
	<p>Taqrizchi: Arxitektura kafedrasida dotsenti _____ M.B.Setmamatov</p>